QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ QOŃÍRAT RAYONÍ HÁKIMINIŃ SH E SH I M I

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QO‘NG‘IROT TUMANI HOKIMINING Q A R O R I

2024-yil 12-dekabr | 405-13-185-Q/24 | Qo‘ng‘irot tumani hokimligi

Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjetning 3-chorak yakunlari bo‘yicha aniqlangan qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari hamda “Byudjet kodeksi”ga muvofiq **qaror qilaman:**

1. Quyidagilar:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘ng‘irot tumanida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha boshqarmasi tasarrufidagi yangi harbiy qism tashkil etilganligi:

harbiy qism uchun Qo‘ng‘irot tumani hududida dala o‘quv maydoni tashkil etish zarurligi;

dala o‘quv maydoni tashkil etish uchun tumandagi “Adabiyot” ovul fuqarolar yig‘ini hududidan 480,0 gektar yer maydoni tanlanganligi;

tanlangan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonini sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar toifasiga o‘zgartirish bo‘yicha “O‘zdavyerloyiha” DILI “QRyerloyiha” bo‘linmasi bilan tuzilgan shartnomaga asosan 201076525 (ikki yuz bir million yetmish olti ming besh yuz yigirma besh) so‘m mablag‘ zarurligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Murtazayev) tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Djumaniyazov)ning ushbu tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman mahalliy byudjeti 3-chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Djumaniyazov) mazkur qarorning 1-bandida ko‘rsatib o‘tilgan mablag‘ni tuman hokimligining tegishli g‘azna hisob raqamiga o‘tkazilishini ta’minlasin.

4. Tuman hokimligi (Murtazaev, Qaldibaev) ajratilgan mablag‘lardan maqsadli ishlatilishini ta’minlasin.

5. Xalq deputatlari Qo‘ng‘irot tumani Kengashining kotibiyatiga mazkur qarorni tasdiqlash masalasini ko‘rib chiqish uchun Xalq deputatlari Qo‘ng‘irot tumani Kengashining navbatdagi sessiyasi kun tartibiga kiritish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Murtazayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **B.Madaminov**